

## TA'LIM XIZMATLARI BOZORIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIGI XUSUSIYATLARI

*Imomov Xolmurod Norqulovich*

*Samarqand iqtisodiyot va servis instituti mustaqil izlanuvchisi*

*e-mail: [00\\_bek94@mail.ru](mailto:00_bek94@mail.ru)*

*tel.: +998 99 338 36 53*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada ta'lim xizmatlari bozorida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) tamoyillarining o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. DXSh modeli ta'lim sifati, moliyaviy barqarorlik va innovatsion rivojlanishga ta'siri nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi. Shuningdek, rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda DXSh asosida amalga oshirilayotgan loyihalar misolida ularning samaradorligi va barqarorligi baholanadi. O'zbekiston sharoitida DXShning ahamiyati, mavjud muammolar va rivojlantirish istiqbollari bo'yicha tavsiyalar beriladi.

**Kalit so'zlar:** ta'lim bozori, davlat-xususiy sheriklik, innovatsiya, investitsiya, ta'lim sifati, hamkorlik modeli, barqaror rivojlanish.

**Kirish.** Ta'lim xizmatlarining jahon bozorida muhim o'ringa ega bo'lgan mamlakatlar tajribasining qiyosiy tahlili shuni ko'rsatadiki, davlat, OTMlari va biznes subyektlari ta'lim xizmatlari eksportini kengaytirish strategiyalarini ishlab chiqish va amalga oshirishda ishtirok etadi. Biznes tomonidan amalga oshiriladigan funktsiya bunday eksport uchun infratuzilmani qo'llab-quvvatlashni shakllantirish va rivojlantirishdir.

Oliy ta'limning asosiy xususiyatlaridan biri uni moliyalashtirish darajasidir. Shunday ekan, mamlakatning iqtisodiy farovonligi va ta'limni moliyalashtirish hajmi o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri bog'liqlikning mavjudligi aksiomatikdir. Ushbu holat qo'yidagilar bilan izohlanadi: fuqarolar ta'lim olish uchun qancha vaqt sarflasa, iqtisodiyot shunchalik jadal rivojlanadi; ta'limning yuqori darajada rivojlanishi iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlaydi.

Shu nuqtai nazardan, bilim sohasi sifatida ta'limga yo'naltirilayotgan sarmoyalar mamlakat ravnaqini ta'minlovchi yuqori daromadli biznes bo'lishi tabiiydir. Shunga ko'ra, ijobiy global tendentsiya – bu ta'limga, xususan, oliy ta'limga xarajatlarning ko'payishi orqali namoyon bo'ladi. Oliy ta'limning moliyaviy bazasini kengaytirish inson kapitalini rivojlantirish, o'quv jarayonlarini modernizatsiya qilish, OTMlari raqobatbardoshligini oshirishning zaruriy shartidir.

**Adabiyotlar sharhi.** Hududda oliy ta'limni rivojlantirishda davlat-xususiy sheriklikning rolini ochib berishga o'tar ekanmiz, tadqiqotchilarning fikr-mulohazalariga murojaat qilish zarur, deb hisoblaymiz.

V.L.Eremining fikricha, bunday hamkorlik ta'lim loyihalarini amalga oshirish maqsadida amalga oshirilmoqda [1]. Yu.V.Stepanov uning fikriga qo'shilgan holda davlat va biznes o'rtasidagi hamkorlik xususiy biznesni ta'lim loyihalarini moliyalashtirishga jalb qilish usuli ekanligini ta'kidlaydi [2]. Bunda shu jihatga e'tibor qaratish kerakki, zamonaviy OTM nafaqat o'quv, balki ilmiy loyihalarni ham amalga oshiruvchi o'quv-ilmiy kompleks hisoblanadi.

Bu borada A.Volkova, I.Remorenko, I.Frumin, L.Yakobsonlardan iborat mualliflar jamoasi ta'kidlaydilarki, davlat-xususiy sheriklikni OTMLarining innovatsion infratuzilmasini, jumladan, biznes-inkubatorlar, texnoparklar, venchur kapital korxonalarini rivojlantirish bilan bog'ladilar [3].

E.V.Savitskayaning fikriga ko'ra, OTMLari va korxonalar o'rtasidagi o'zaro hamkorlik oliy ta'lim tizimida mavjud uchta muammoni hal qilish imkonini beradi: oliy o'quv yurtlari bitiruvchilarining kasbiy tayyorgarligi va ish bilan ta'minlanishi o'rtasidagi nomutanosiblik, oliy ta'limni moliyalashtirishning etarli emasligi va OTMLarining ilmiy faolligining pasayishi [4].

A.A.Firsova va O.Yu.Chelnokova hududlarning innovatsion o'sishiga OTMLarini ko'maklashishiga alohida e'tibor qaratib, yangi bilimlarni ishlab chiqarish va uzatish, kadrlar salohiyatini oshirish, yangi texnologiyalar salohiyatidan foydalanish va innovatsiyalarni joriy etish orqali ularni mahalliy hamjamiyatni rivojlantirishga integratsiyalashuvini ta'minlaydi [5]. Mazkur yondashuvni qo'llab-quvvatlash orqali OTMLarining akademik harakatchanligini oshirishning eng samarali yo'li ularning hudud iqtisodiyotining transformatsiyashishidagi subyekt sifatidagi rolini oshishidir.

MDH olimlarining fikricha davlat-xususiy sherikligi munosabatlarining o'rnatilishi va rivojlanishini ko'rib chiqqan holda "...bu protsessual harakterda bo'lib davlat tadbirkorlar fuqarolik jamiyati institutlarining ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlik va milliy xavfsizligiga erishishga qaratilgan taraflarning o'zaro birdam munosabatidir" deb e'tirof etishadi [6].

Ta'lim sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish bugungi kunga kelib, ta'lim sohasidagi davlat-xususiy sheriklik loyihalarining asosiy turlari qo'shma va xususiy universitetlarni tashkil etish, xususiy noshirlar tomonidan xalq ta'limi tizimi uchun kitoblar va qo'llanmalarni nashr etish va ko'paytirish, ilmiy-madaniy markazlar qurish, shuningdek, xususiy maktab va maktabgacha ta'lim muassasalarini tashkil etish ob'yektlarini qamrab olmoqda. Bu o'z navbatida bilimga asoslangan jamiyatning vujudga kelishi va innovatsion iqtisodiyotning rivojlanishi sharoitida ta'lim sohasining mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishidagi ahamiyati sezilarli darajada oshishiga olib kelmoqda.

Zamonaviy jamiyatda ta'lim sohasining o'rni uning kompetensiyalarini rivojlantirish, bilimlarni yaratish va tarqatish -zamonaviy jamiyatning asosiy resurslari bilan belgilanadi. Shu bilan birga, axborot oqimining ko'payishi va tezlashishi, doimiy ravishda yangi bilimlarning paydo bo'lishi, mutaxassislar tayyorlash sifatiga qo'yiladigan talablarning sezilarli darajada oshishi mavjud ta'lim tizimini takomillashtirish va ta'limni tez o'zgaruvchan mehnat bozori talablariga moslashtirish zaruratini keltirib chiqaradi.

Bu o'z navbatida ta'lim tizimini rivojlantirish yo'nalishida ta'lim muassasalari va tadbirkorlik sub'yektlari, davlat organlarining davlat xususiy sheriklik doirasidagi o'zaro hamkorligining tamoyillari va zamonaviy yo'nalishlarini belgilab beruvchi ilmiy-amaliy tavsiyalarning yanada kengayib borayotganligidan dalolat bermoqda.

Davlat-xususiy sherikligi - bu davlat va ijtimoiy mulk ob'yektlari hamda turli xil ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish maqsadida davlat sherigi va

xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan shakli bo‘lib, bugungi kunda ta‘lim sohasini jadal rivojlantirish hayotiy zaruratga aylangan bir pallada, ta‘limdagi sifat darajasini oshirishda davlat-xususiy sherikchiligi imkoniyatlaridan ham foydalanish va uni ta‘lim tizimiga moslashtirish hozirgi kunning eng muhim masalalaridan biri hisoblanadi.

**Tahlil va natijalar.** Mamlakatimiz ta‘lim sohasi uchun DXShning asosiy afzalliklari qo‘yidagilarda namoyon bo‘ladi:

– qisqa davrda ijtimoiy ahamiyatga ega loyihalarni amalga oshirish imkoniyatlarining mavjudligi;

– ta‘lim, xususan, oliy ta‘lim sohasida ijtimoiy ahamiyatga ega DXSh loyihalaridan yuqori darajada foydalanish imkoniyatining mavjudligi;

– davlat (davlat OTMlari) obyektlariga xususiy moliyalashtirish bo‘yicha ko‘proq miqdorda mablag‘larni jalb qilish imkoniyatlari;

– ta‘limga, xususan, oliy ta‘lim tizimiga davlat xarajatlarining qisqarishi;

– xususiy mablag‘lar hisobiga davlat ijtimoiy obyektlari (OTM obyektlari)ni bunyod etishga moliyalashtirish;

– davlat va xususiy subyektlar o‘rtasida risklarni taqsimlash;

– OTMlari infratuzilmasini rivojlanishida zamonaviy texnika va texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlari.

Hozirgi vaqtda mamlakatimizda davlat-xususiy sheriklik tamoyillari va mexanizmlari asosida xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ijtimoiy-iqtisodiy va boshqaruv amaliyotini muvofiqlashtirish jarayonlariga alohida ustuvorlik berilmoqda. O‘zbekiston Respublikasining “Davlatxususiy sheriklik to‘g‘risida”gi qonunini 3-moddasiga muvofiq: “davlat-xususiy sheriklik — davlat sherigi va xususiy sherikning muayyan muddatga yuridik jihatdan rasmiylashtirilgan, davlat-xususiy sheriklik loyihasini amalga oshirish uchun o‘z resurslarini birlashtirishiga asoslangan hamkorligi” sifatida e‘tirof etiladi.

Davlat uchun davlat-xususiy sheriklikning jozibadorligi quyidagi omillar asosida aniqlanadi: xususiy sektorning ishtiroki hisobiga loyihalar samaradorligining oshishi; davlat iqtisodiyotni rivojlantirishga qodir muhim masalalarni hal qilish imkoniyatlari; xususiy moliyaviy mablag‘lar hisobiga byudjet xarajatlarini pasayishi; hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy barqarorligini mustahkamlash va raqobat darajasini oshishi.

Bizning fikrimizcha, muayyan modelni tanlash ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan muhim ahamiyatga ega loyihalarni realizatsiya qilishga bog‘liqdir.

Shu o‘rinda aytish kerakki, operator modeli davlat va xususiy sheriklar o‘rtasida mas‘uliyatni taqsimlashga asoslanadi. Bu model chiqindilarni qayta ishlashda qo‘llaniladi.

Kooperatsiya modeli soliqqa tortishning mustaqil obyektlariga xizmat ko‘rsatish murakkab bo‘lganda qo‘llaniladi. Bu mexanizm davlat va xususiy tadbirkorning qo‘shma korxonasi orqali amalga oshiriladi.

Shartnomaviy modeli ko‘pincha joriy xarajatlarni pasaytirishga yo‘naltirilgan investitsiyalar bo‘yicha energetika tarmog‘ida qo‘llaniladi.

Davlat-xususiy sheriklik davlat subyektlariga (masalan, davlat organlari) xususiy sektor investitsiyalaridan foydalanishga imkon beradi. Bu mablag' cheklanishi mumkin bo'lgan maktabgacha ta'lim sharoitida juda muhimdir. Xususiy investorlarni jalb qilish davlat byudjetiga moliyaviy yukni kamaytirishi va sifatli ta'lim olish imkoniyatini kengaytirishi mumkin. Xususiy sheriklar ko'pincha qurilish va menejment bo'yicha tajriba olib boradilar, bu esa ta'lim muassasalarining samarali rivojlanishiga olib keladi. Bu, o'z navbatida, bolalar uchun yaxshi o'quv muhitiga hissa qo'shadi.

Xususiy sektor ko'pincha xizmat ko'rsatish nuqtai nazaridan yanada tezkor va innovatsiondir. Xususiy tashkilotlar bilan hamkorlik qilish orqali maktabgacha ta'lim muassasalari davlat sektorida yetishmasligi mumkin bo'lgan eng yaxshi amaliyot va zamonaviy ta'lim texnikasini amalga oshirishi mumkin.

Moliyaviy lizing modeli davlat tomonidan xususiy sektorga bino, inshootlar, ishlab chiqarish vositalari, transport vositalari, muhandislik majmualarini ijaraga berishni nazarda tutadi [7].

Yirik ijtimoiy-iqtisodiy loyihalarni realizatsiya qilishda konsessiya modeli alohida ahamiyatga ega. Turli xil yondashuvlarga asoslanadigan bo'lsak, konsessiya modeli DXShning quyidagi sabablarga ko'ra, rivojlangan shakli hisoblanadi: konsession munosabatlar uzoq muddatli tavsifga ega; tadbirkorlik tuzilmalarida konsessiyalar boshqaruv qarorlarini qabul qilishda erkinlikka ega bo'ladi; konsessioner tomonidan shartnoma shartlari buzilganda, davlat xususiy sektorga muayyan darajada ta'sir etish imkoniyatiga ega bo'ladi.

Konsessiyadan tashqari, DXShning boshqa shakllaridan foydalanish mumkin, masalan, davlat binolar, inshootlar, ishlab chiqarish vositalari kabilarni xususiy sektorga o'tkazish orqali ijara munosabatlari shakllanadi.

Bundan tashqari, rivojlangan mamlakatlarda investitsion loyihalarni amalga oshirishdan oldin loyihalarni realizatsiya qilish imkoniyatlarining (VFM) dastlabki taqqoslama tahlili o'tkaziladi. DXSh asosidagi loyihalarni realizatsiya qilish huquqi bo'yicha tanlovlarni o'tkazishning xorij tajribasi bir qancha bosqichni o'z ichiga qamrab oladi.

Birinchi bosqichda ishtirokchilarni tanlash bo'yicha dastlabki tanlov o'tkaziladi. Ikkinchi bosqichda tanlov tashkilotchisi tanlov bo'yicha takliflarda ko'rsatilgan loyihaning texnik parametrlarini aniqlaydi. Uchinchi bosqichda tanlov tashkilotchisi tanlov bo'yicha takliflarda ko'rsatilgan loyihaning moliyaviy parametrlarini aniqlaydi.

Ta'kidlash kerakki, DXSh mexanizmini qo'llashda qurilish obyektlariga investitsion xarajatlar davlat byudjeti mablag'lari hisobiga moliyalashtirishga nisbatan yuqori bo'ladi. Bundan tashqari, davlat qurilish obyektiga xususiy sektor imkoniyatlarini taqdim qila turib, investitsion xarajatlarni bo'lib-bo'lib to'lash huquqiga ega bo'ladi va qurilgan obyektни saqlash bo'yicha xarajatlarni qisqartiradi.

Butun dunyoda DXSh tizimiga xos bo'lgan asosiy xususiyatlar quyidagilardan iborat:

**1. Hamkorlik.** DXSh doirasida loyihalarning maqsadlari, vazifalari, dasturlari va ularni boshqarish mexanizmini birgalikda ishlab chiqish amalga oshiriladi.

**2. Qo‘yilgan vazifalarni birgalikda realizatsiya qilish.** Hamkorlik munosabatlarida ishtirok etish orqali tomonlar masalalarni hal etishning optimal yo‘lini izlab topish, u yoki bu holatlarda umumiy harakatlar siyosatini ishlab chiqishga intiladilar.

**3. Hamkorlikning amal qilish muddati.** DXSh shartnomalari odatda, muayyan muddat davomida realizatsiya qilinishi hisob-kitob qilinadi, hamkorlik bundan tomonlarning o‘zaro munosabatlarining doimiy institutsionallashuvini nazarda tutadi [8].

**4. Resurslarni almashish.** Tomonlar o‘rtasida nafaqat moliyaviy resurslarni, balki intellektual, mehnat va axborot resurslarini ham birlashtiradilar. Loyihada qo‘yilgan maqsadlarga erishish uchun resurslarni qidirish, almashish va boshqarish bo‘yicha munosabatlar amalga oshiriladi.

**5. Riskni boshqarish.** Riskni boshqarish DXShning amalga oshirishning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi. Tomonlar kuchlarni birlashtirish orqali ko‘pgina risklardan himoyalaniшни ta‘minlash, yashirin risklarni aniqlash, ularni sug‘urtalashning mos keladigan uslubini tanlashga harakat qiladilar.

Ta‘kidlash kerakki, bizning tadqiqot ishimizda oliy ta‘lim sohasida DXSh loyihalarining konsessiya shaklini boshqarish mexanizmi tahlil etiladi. Bu shu bilan bog‘liqlik, DXSh loyihasining konsession chizmasi dunyoda eng ko‘p foydalaniladigan va davlat xizmatlarining barcha sohalarida, xususan, OTMlarida amalda keng qo‘llaniladi hamda konsessiyaga moliyaviy-iqtisodiy nobarqarorlik sharoitida katta qiziqish saqlanib qolmoqda. Konsessiyalar bitimlar soni, jalb qilingan investitsiyalar hajmi va turli iqtisodiy ko‘rsatkichlar bo‘yicha boshqa shakllardan ustundir.

Bizning fikrimizcha, oliy ta‘lim tizimini rivojlantirishda DXShning rolini aniqlashda quyidagilar alohida muhim jihatlar hisoblanadi:

– birinchidan, DXSh subyektlarining tarkibi va ularning o‘zaro manfaatlarini aniqlash;

– ikkinchidan, sheriklik funktsiyalari tasnifini ishlab chiqish;

– uchinchidan, DXShning strategik maqsad va vazifalarini aniqlash.

Davlat-xususiy sheriklik subyektlari orasida quyidagilarni ajratib ko‘rsatamiz:

– hududiy davlat hokimiyati organlari;

– oliy ta‘lim muassasalari;

– xususiy biznes tuzilmalari.

Davlat hamkorini tavsiflashda shuni ta‘kidlash kerakki, viloyatning etakchi universitetlari odatda to‘plangan viloyat markazlarida mahalliy davlat hokimiyati organlari oliy ta‘limni rivojlantirishga ko‘maklashuvchi DXSh loyihalari ishtirokchisiga aylanishi mumkin.

DXShning subyekti sifatida davlat oliy ta‘lim muassasalari bilan bir qatorda kadrlar tayyorlash (bakalavrlar, mutaxassislar, magistrlar, aspirantlar), ilmiy tadqiqotlarga byudjet grantlari, tajriba-konstruktorlik ishlanmalari bo‘yicha davlat buyurtmalarini bajaruvchi xususiy OTMlari ham bo‘lishi mumkin.

DXSh subyektlari manfaatlarini yuzasidan ilmiy adabiyotlar tahliliga ko‘ra, ularni tadqiq etishga alohida urinishlar mavjudligini ko‘rishimiz mumkin. Ular subyektlar



manfaatlarning aniq identifikatsiyasini o‘z ichiga olmaydi, chunki ularda qo‘llaniladigan yondashuv faqat DXSh loyihalari ishtirokchilari tomonidan ularni amalga oshirishdan kutayotgan asosiy natijalarni aniqlashga qaratilgan.

Davlat-xususiy sheriklik (DXSh) davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi uzoq muddatli hamkorlikni anglatadi. Bu model davlat xizmatlarini taqdim etish yoki infratuzilmani rivojlantirish uchun xususiy sektorning moliyaviy, texnologik va boshqaruv resurslarini jalb qilishni ko‘zda tutadi. DXSh modeli ayniqsa, resurslar cheklangan, ammo ijtimoiy talab yuqori bo‘lgan maktabgacha ta‘lim tizimi kabi sohalarda samarali yechim sifatida ko‘rilmoqda.

**Xulosa va takliflar.** Ta‘lim xizmatlari bozorida davlat-xususiy sheriklik (DXSh) modeli ta‘lim sifatini oshirish, moliyaviy resurslarni samarali jalb qilish va innovatsion texnologiyalarni joriy etish imkoniyatlarini yaratadi. Jahon tajribasi shuni ko‘rsatadiki, DXSh asosida tashkil etilgan ta‘lim loyihalari davlat va xususiy sektor o‘rtasida samarali hamkorlikni yo‘lga qo‘yish orqali barqaror rivojlanishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, muvaffaqiyatli sheriklik uchun huquqiy baza mustahkamligi, moliyaviy imtiyozlar va ishonchli monitoring tizimi muhim ahamiyatga ega. Olib borilgan tadqiqot natijasida quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

**1. Normativ-huquqiy bazani takomillashtirish** – DXSh mexanizmlarining samarali ishlashini ta‘minlash uchun qonunchilik asoslarini rivojlantirish va ularni xalqaro standartlarga moslashtirish zarur.

**2. Xususiy sektorni jalb etish mexanizmlarini rivojlantirish** – ta‘lim sohasida investitsiyalarni rag‘batlantirish uchun soliq imtiyozlari va subsidiyalar taqdim etish lozim.

**3. DXSh loyihalarining shaffofligini oshirish** – davlat va xususiy hamkorlik doirasidagi bitimlarning ochiq va shaffof yuritilishini ta‘minlash uchun raqamli platformalar yaratish tavsiya etiladi.

**4. Innovatsion texnologiyalarni rivojlantirish** – xususiy sektor bilan hamkorlikda zamonaviy ta‘lim dasturlarini ishlab chiqish, masofaviy ta‘lim tizimini kengaytirish va raqamli ta‘lim resurslarini rivojlantirish muhim.

**5. Monitoring va baholash tizimini joriy etish** – DXSh asosidagi loyihalarning samaradorligini baholash va ularning natijadorligini oshirish uchun muntazam monitoring tizimini yo‘lga qo‘yish kerak.

**6. Davlat va xususiy sektor o‘rtasidagi ishonchni mustahkamlash** – manfaatdor tomonlar o‘rtasida uzoq muddatli hamkorlikni yo‘lga qo‘yish uchun shaffof va adolatli sheriklik tamoyillarini targ‘ib qilish lozim.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. Еремин В.Л. Государственно-частное партнерство в образовании / <http://vkonline.ru/94891/article/>

2. Степанов Ю.В. Проблемы взаимодействия государственных и предпринимательских структур в сфере образования / Ю.В. Степанов // Бизнес в законе. Экономикоюридический журнал. – 2012. - №6. – С. 156.

3. Российское образование – 2020: модель образования для экономики, основанной на знаниях: к IX Междунар. науч. конф. «Модернизация экономики

и глобализация», Москва, 13 апреля 2008 г. / А.Волков, И.Реморенко, Я.Кузьминов, Б.Рудник, И.Фрумин, Л.Якобсон / под ред. Я.Кузьминова, И.Фрумина ; Гос. ун-т – Высшая школа экономики. – М.: Изд. Дом ГУ ВШЭ, 2008. – М.: Издат. дом ГУ ВШЭ, 2008. – С. 24.

4. Савицкая Е.В. Модернизация образования: сотрудничество университетов и корпораций / Е.В. Савицкая // Образовательные технологии. – 2013. - №2. – С. 10 (10-20).

5. Фирсова А.А. Модели взаимодействия университета и региона / А.А. Фирсова, О.Ю. Челнокова // Известия Саратовского университета. Нов. сер. Сер. Экономика. Управление. Право. – 2013. – Т.13. – Вып. 4(2). – С. 620 (619-623).

6. Abdikarimova Z.B. Ta’lim tizimida davlat-xususiy sherikchilik munosabatlarini rivojlantirish yunalishlari va ustuvor jixatlari // <https://dx.doi.org/10.36522/2181-9637-2022-2-3> UDS: 334.723

7. Шарингер Л. Новая модель инвестиционного партнерства государства и частного сектора / Л. Шарингер // Мир перемен. - 2004. - № 2. – С. 22.

8. Стырин ЕМ. Международный опыт использования ГЧП для реализации проектов электронного правительства. – М.: «Издательский дом ВШЭ», 2010.